

## AXBOROT-PSIXOLOGIK URUSH DAVRIDA MEDIAISTE’MOLI MADANIYATIINI SHAKLLANTIRISH

**Muladjanova Gulchexaxon Abidjanovna**  
**Andijondavlat pedagogika instituti**  
**Pedagogika va psixologiya**  
**kafedrası assistent o’qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan vaqtda yoshlarda axborot-psixologik urush davrida mediaiste’moli madaniyatini shakllantirishning muhim tomonlari yoritib berilgan.

**Kalit so’zlar:** axborot xavfsizlik, mediaiste’mol, psixologik urush, axborot makoni, axborot urushi.

Sivilizasiya rivojining zamonaviy bosqichida axborot nafaqat jamoat va davlat institutlari faoliyatida, balki har bir inson hayotida hal qiluvchi rolni o’ynaydi. Ko’z oldimizda jamiyatning axborotlashishi shiddat bilan va ko’pincha oldindan bilib bo’lmaydigan tarzda rivojlanmoqda. Biz esa uning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa oqibatlarini tushunib yeta boshlaymiz, xolos. Jamiyatimizning axborotlashishi yagona dunyo axborot makonining yaratilishiga olib keladiki, bu makon doirasida axborotni yig’ish, ishlash, saqlash va sub’ektlar – insonlar, tashkilotlar, davlatlar o’rtasida almashish amalga oshiriladi.

Urushlar doimo bo’lgan. Vaqt o’tishi bilan urushni olib borish butun bir fanga aylandi. Har qanday fanagidek urushda o’zining tarixi, o’zining qoidasi, mashhur namoyondalari, o’zining metodologiyasi paydo bo’ldi. Zamonaviy urush g’oyasi juda ildamlab ketdi. Endi uning makoni – butun yer shari. Urush lokal qaroqchi xujumidan bir necha davlatlarni vayron qiluvchi global muammoga aylandi.

Axborot urushiga oddiy vositalar yordamida harbiy harakatlar samara bermaydigan hollarga nisbatan strategik alternativa sifatida qaralmoqda. Harbiylar tomonidan kiritilgan axborot urushi atamasi real, qirg’inli va yemiruvchi harbiy harakatlar bilan bog’liq shafqatsiz va xavfli faoliyatni anglatadi. Bu urushning alohida qirralari-shtab urushi, elektron urushi, psixologik amallar va h.

“Axborot urushi” atamasini birinchi marta 1976-yilda T.Rona “Boing” kompaniyasi uchun tayyorlangan hujjatda qo’llagan. 1992-yildan boshlab, “axborot urushi” atamasi AQSH Mudofaa vazirligi tomonidan rasmiy ravishda ishlatilgan. Axboriy-psixologik kurash, kiber urushni o’rganuvchi ilmiy yondashuvlarning xilma-xilligi hodisaga nisbatan yagona qarash yo’qligini ko’rsatadi. Bugungi kunda ilmiy sohada quyidagi asosiy yondashuvlar aniqlangan: geosiyosiy, psixologik, kommunikativ, konfliktologik.[1]

Axborot urushi o’z maqsadi, mazmun-mohiyatiga ko’ra, maxfiy yoki oshkora, ahamiyati kam yoki radikal ta’sirli siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy-psixologik, tijoriy, harbiy hodisa bo’lishi mumkin. “Axborot urushi” va “axboriy kurash” tushunchalari farqlanadi. Axboriy-psixologik kurash tushunchasi neytral ma’no anglatib, salbiy mazmunda axboriy urush, psixologik urush, kiber urush shakllarida ham qo’llanadi. Bugungi kunda axborot-psixologik urush jangovar operatsiyalarni ta’minlashdan tashqari o’zi alohida mustaqil urush turiga aylandi va geosiyosiy darajadagi strategik vazifalarni hal qilishga qodir hodisa hisoblanadi. Shu bilan birga, agressiv axborot va psixologik kurashning o’zi urush va qurolli to’qnashuvlarni keltirib chiqaradi. Axborot va psixologik qurollarning xavfi ulardan foydalanishdagi shaxssiz xususiyatidadir, bu hujum harakatlarini, hatto urush e’lon qilmasdan ham noma’lum holda amalga oshirishga imkon beradi. Bundan tashqari, axboriy qurollarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishni taqiqlash deyarli mumkin emas (masalan,

kimyoviy yoki bakteriologik qurollarga nisbatan taqiq o’rnatilgan). Axboriy urush shaxs, jamiyat, tuzilma va davlatlar o’rtasida manfaatlar to’qnashuvi, qarama-qarshilik yuz bergan holatlarda ustunlikka erishish, biror siyosiy, iqtisodiy yoki boshqa maqsad yo’lida ma’lumot olish, qayta ishlash va yetkazish, siyosiy va harbiy maqsadlarga erishish, axloqiy va psixologik ta’sir ko’rsatish maqsadidagi kurashdir. Axborot urushi kompyuterlar, dasturiy ta’minotga hujum qiladigan va axboriy tizimlarni izdan chiqaradigan kiber urushlardan farq qiladi. Axborot urushi muayyan maqsad yo’lida ma’lumotlarni manipulyatsiya qilish, qaysidir shaxs, guruh, tuzilma yoki davlatning manfaatlariga qarshi, lekin boshqa tomon uchun manfaatli bo’lgan, axboriy bosimga asoslangan harakat hisoblanadi. Axborot urushi qachon boshlanishi, tugashi va uning qanchalik kuchli yoki halokatli ekanligi aniq emas. Axborot urushi taktik ma’lumotlarni to’plash, o’z manfaatlariga yo’naltirilgan axborotlarni tarqatish, tashviqot, dezinformatsiya kampaniyasi, demoralizatsiya (ma’naviy, axloqiy tanazzul) yoki manipulyatsiya qilishni o’z ichiga olishi mumkin. Axborot urushi psixologik urush bilan chambarchas bog’langan. Axboriy, psixologik, kiber urushlar umumiy lashtirilib, “axborot operatsiyalari” atamasidan foydalangan holda ham ifodalanadi. Bunda texnologiyalar bilan bir qatorda axborotdan foydalanishning inson bilan bog’liq jihatlariga, jumladan, ijtimoiy tarmoq tahlili va insonni axborot orqali boshqarishga e’tibor qaratiladi.

Axboriy-psixologik, kiber urushlar bir necha shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- matbuot, televideniye, radio, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali o’z maqsadiga yo’naltirilgan axborotlarni uzatish;
- dezinformatsiya kampaniyasi;
- aloqa va kommunikatsiya tarmoqlari o’chirilishi;
- aloqa tarmoqlari soxta bo’lishi;
- raqamli aralashuv bilan maxfiy ma’lumotlarni oshkor qilish yoki dezinformatsiyani joylashtirish orqali sabotaj;
- dronlar va boshqa kuzatuv robotlari yoki veb kameralardan foydalanish;
- kommunikatsiyani boshqarish;
- sintetik vositalar;
- ongni manipulyatsiya qilish;
- vandalizm, ya’ni xakerlar tomonidan veb sahifalarga zarar yetkazish, mazmunni almashtirish;
- axborot yig’ish, maxfiy ma’lumotlarni to’plash, soxta ma’lumotlar joylashtirish uchun shaxsiy sahifalar yoki serverlarni buzish va hokazo.

Zamonaviy axborot iste’molchisi ommaviy axborot vositalaridan ma’lumot olganda, ularni “do’stlariga ulashishi” mumkin va 99 foiz holatda uning to’g’riligini tekshirishi, ta’sirini tahlil qilishi mumkin emas. Manipulyatsiya muvaffaqiyatining asosiy sababi shundaki, aksariyat hollarda odam o’ziga berilgan xabarlarini tekshirish uchun vaqtini ham, aqlini ham sarflashni xohlamaydi. Axborotni zarur talqinda uzatish uchun jamiyatda obro’ga ega odamlar — akademiklar, shoirlar, san’atkorlar, chiroyli qizlar yollanadi. Ma’lumotlar turli manbalar orqali takror va takror, kichik dozalarda taqdim etiladi. Shunday qilib, odamlar mustaqil fikrlamay qo’yadi. Ong ostiga ta’sirni kuchaytirish uchun inson hissiyotlaridan foydalaniladi va ularning eng kuchlisi qo’rquvdir. Bunda sensatsion (shov-shuvli) oziqlantirish texnologiyasi keng qo’llanadi. Qo’rquv bilan ta’sir ko’rsatuvchi yolg’on vizual tasvir bilan beriladi.

Zamonaviy mediamakondagi axboriy-psixologik kurashning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va huquqiy sabab va oqibatlarini turlicha. Axboriy-psixologik kurash davlat xavfsizligiga daxl qiladi, xalqaro tinchlikka tahdid soladi, jamiyatda xaos keltirib chiqaradi, madaniyatlar yemirilishiga sabab bo’ladi, nosog’lom raqobat muhitini vujudga keltiradi, insonlar ma’naviyati va sog’lig’iga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Bu jarayonda asosiy qurol, ta’sir vositasi axborot hisoblanadi. Shu bois jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya yo’nalishida

axboriy-psixologik kurashning axboriy muhitga ta’siri masalasi, xususan, axborot-psixologik kurash sharoitida axborot iste’moliga ta’siri va media iste’molida keltirib chiqarayotgan muammolarini o’rganish dolzarbdir. Axborot-psixologik kurashning ta’sirini 2 ta yo’nalishda o’rganish mumkin: kompleks va individual ta’sir. Kompleks ta’sir davlat, jamiyat, guruhga ta’sir o’rganilsa, individual ta’sirda insonga, uning tafakkuri, ruhiyati, salomatligiga qaratilgan bo’ladi.

Axborot-psixologik kurashning bu va boshqa salbiy ta’sir hamda oqibatlaridan himoyalanih muhim vazifa. Axborotni uzatish kanallari va vositalarini nazorat qilish imkonsizligi tufayli media iste’molchilarida zarur malakani shakllantirish taqozo etiladi. Axborotdan bahramandlik, axborotdan to’g’ri foydalanish, to’g’rini noto’g’ridan ajrata olish, representatsiya va reallikning farqini anglash uchun axborot iste’molchilarini axboriy jamiyatga tayyorlashga qaratilgan mazkur vazifani zamonaviy mediamakonda media-ta’lim bajarmoqda.

Axborot texnologiyalari yetakchi o’ringa chiqib olgan hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda maktablar tizimini, ta’lim mazmunini yangilash zaruratga aylandi. Eskicha o’qitish usullari va metodlari ma’nan eskirib, ta’limning ilg’or pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlari va shakllariga ehtiyoj kuchaydi.[2]

Axborot-psixologik kurash sharoitida media-savodxonlikka qo’yiladigan talablar:

- qarama-qarshi tomonlar bir-biriga qarshi agitatsiya, qasddan dezinformatsiya tarqatishi mumkinligini tushunish;
- keng ko’lamli voqealarga ta’sir o’tkaza olmasligini haqiqat sifatida qabul qilish;
- ishonchi komil bo’lmagan axborotlarni tarqatmaslik, axborot oqimida g’arq bo’lmaslikka intilish;
- axborot urushida tomonlar bir-birini chalg’itish uchun foydalangan texnologiyalarni aniqlay olish;
- fikrlarni faktlardan ajrata olish;
- shoshilinch xulosa chiqarmaslik, hissiyotlarni boshqarish;
- faqat o’zi yoki yaqinlari guvoh bo’lgan, to’g’riligiga ishonchi komil bo’lgan faktlarni e’lon qilish;
- bahs-munozara madaniyatiga ega bo’lish, fikri bir xil bo’lmagan insonlarga nisbatan ham hurmatni saqlab qolish;
- vahima holatida qaror qabul qilmaslik;
- ertami-kechmi har qanday mojaro tugashi va vaziyat o’z yechimini topishini tushunish, shuning uchun bunday vaziyatlarga butun e’tiborni qaratish to’g’ri emasligini anglash.[3]

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Sanobar Jumanova. <https://factchecking.uz/uz/2023/06/30/axborot-psixologik-urush-davrida-mediaiste%CA%BCmoli-nimalarga-e%CA%BCtibor-qaratish-kerak/>
2. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining o’ziga xos jihatlari. Muladjanova Gulchehraxon Abidjanovna. <http://woconferences.com/index.php/pisrme/issue/view/38>
3. <https://uz.historical-facts.com/15238885-means-and-methods-of-psychological-influence-of-information-on-a-person>